

KUTUBXONA-AXBOROT FAOLIYATI SIVILIZATSIYASIDA YOZUV VA TILNING AHAMIYATI, KUTUBXONA TURLARI UNING FAOLIYATINI SHAKLLANTIRISH

O'rinboyeva Durdona Usmon qizi

Termiz davlat universiteti Ijtimoiy fanlar fakulteti
Kutubxona-axborot faoliyati 2-kurs 123-guruh talabasi.

Tel.+998500709281

E-mail:durdona.urinboyeva0105@gmail.com

Suvanov Husniddin Norqulovich

Ilmiy rahbari:Termiz davlat universiteti,
O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi.

Tel:+998977868805 E-mail: hsuvanov@tersu.uz

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15287674>

Annotatsiya. Yozuv rasm yoki magnitli audioyozuv kabi matnmas ifodalovchi yoki til saqlovchi vositalardan farqlanadi. Ilmiy, siyosiy, huquqiy, diniy va estetikaga oid malumotlar berilishi asoslangan. Buxoro, Samarqand, Marv, Urganch va boshqa yirik shaharlar hukmdorlari saroylarida kutubxonalar barpo etilgani va boshqa joylar kutubxonalari haqida ma'lumotlar bayon etildi.

Kalit so'zlar: Kitobxon, yozuv, kutubxona, madaniy.

THE IMPORTANCE OF WRITING AND LANGUAGE IN LIBRARY-INFORMATION ACTIVITY CIVILIZATION, TYPES OF LIBRARIES SHAPING ITS ACTIVITY

Abstract. Writing is distinguished from non-textual means of expression or preservation of language, such as painting or magnetic audio recording. It is based on the provision of scientific, political, legal, religious and aesthetic information. Information about the establishment of library libraries in the palaces of the rulers of Bukhara, Samarkand, Merv, Urgench and other large cities and the libraries of other places is described and scientifically illuminated.

Keywords: Reader, writing, library, cultural.

ЗНАЧЕНИЕ ПИСЬМЕННОСТИ И ЯЗЫКА В БИБЛИОТЕЧНО- ИНФОРМАЦИОННОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ЦИВИЛИЗАЦИИ, ТИПЫ БИБЛИОТЕК, ФОРМИРУЮЩИЕ ЕЕ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ

Аннотация. Письмо отличается от нетекстовых средств выражения или сохранения языка, таких как изображения или магнитные аудиозаписи. Он основан на

предоставлении научной, политической, юридической, религиозной и эстетической информации. Описаны и научно освещены сведения об учреждении библиотечных палат во дворцах правителей Бухары, Самарканда, Мерва, Ургенча и других крупных городов, а также библиотек в других местах.

Ключевые слова: Читатель, письмо, библиотека, культурный.

Yozuv deb tilning matn orqali ifodalanishiga aytiladi. Bunda matn yozuv tizimi deb nomlanuvchi tayinli belgi va ramzlardan iborat bo'ladi. Yozuv rasm yoki magnitli audioyozuv kabi matnmas ifodalovchi yoki til saqlovchi vositalardan farqlanadi.

Yozuvlar ko'p. Yozuv orqali hayot qununiyatini siri asrorlarini o'rganish mumkin.

Yozuv bir tilda qabul qilingan shuningdek, kishilar bir-biriga tushuntirish hamda ular o'rtasidagi muloqatga xizmat qiladigan yozma belgilar yoki tasvirlar tizimi. Til shakllangandan so'ng ancha vaqtdan keyin yozuv paydo bo'lgan. Yozuvning paydo bo'lishi va taraqqiyoti jamiyat rivoji, shuningdek, muayyan masofadagi kishilarning o'zaro aloqa qilish ehtiyoji bir qancha axborotlarni joylashda quyidagi jarayonlarga yuzlanadi:

- ilmiy
- siyosiy,
- huquqiy,
- diniy

- estetik xarakterdagi axborotlarni qayd etish, saqlash zaruriyati bilan bevosita bog'liq bo'ladi. Rasmi yozuv (piktografiya) yozuv yaratish yo'lidagi birinchi qadam bo'lgan. O'rta Osiyodagi xalqlari ko'plab yozuvlardan foydalanishgan. Jumladan, o'zbek xalqi turli yozuvlardan foydalanib kelgan. Bu yozuvlar avesto, paxlaviy, o'rxun enasoy (runik), turkiy (uyg'ur), so'g'd, arab, kiril va lotin harflariga asoslangan o'zbek yozuvlaridan foydalanib kelmoqda. Yozuv va til o'zaro bog'liq.

Yozuvning paydo bo'lishi va hujjatli manbalarni, ayniqsa, qo'lyozma va keyinchalik bosma kitoblarning ko'payishi kutubxonalarning yuzaga kelishi va rivojlanishiga sharoit yaratdi.

Yozuvlarda ma'noviy xususiyat ko'p. Ajdodlarning madaniy merosini avlodlarga yetkazib berguvchi manba bu kitoblardir. Shu sababli kitobxonlar kitobga mehri berib kitoblarni saqlashga qiziqishgan. Keyinchalik yozma yodgorliklarni saqlovchi kutubxonachilar shakllangan. Miloddan avvalgi 2-ming yillikda sopol bitiklarni saqlangan kutubxonalar paydo bo'lgan.

Sharqda miloddan avvalgi VII asr o'rtalarida ko'p saroylarda kutubxonalar tashkil qilingan. Yana shuni aytish mumkinki, Qadimgi Misr va Rim ibodatxonalar qoshida kutubxonalar bo'lgan. Qadimgi davrning eng mashhuri kutubxonasi Iskandar kutubxonasidir.

Yevropada ilk o'rta asrlarda monastr va ibodatxonalar qoshida kutubxonalar tashkil etilgan. Kitob bosishning ixtiro qilinishi kutubxonalar rivojlanishida yangi davrni boshlab bergan. Sarbonna, Geydelberg universitetlari qoshida, shuningdek, Vatikan kutubxonasi, Parijdagi Qirollik kutubxonalar kabi turli sohalarni qamrab oluvchi kutubxonalar paydo bo'la boshladi.

O'zbekiston hududida miloddan avvalgi 1-ming yillikning so'nggi asrlarida dastlabki kutubxonalar paydo bo'lgan. Turon xalqlari Misr, Eron, Yunon va ularga qo'shni bo'lgan xalqlar bilan yaqin aloqalar o'rnatgan, o'sha davrlardagi mavjud qo'lyozmalar bilan ham tanish bo'lgan.

O'zbekiston xalqlarining qadimgi yozma yodgorliklari saqlanmagan. IX-X asrlarda O'rta Osiyoda fan va madaniyat rivojlandi. Buxoro, Samarqand, Marv, Urganch va boshqa yirik shaharlar hukmdorlari saroylarida kutubxonalar barpo etildi. Ayniqsa, Buxoro shahrida ko'p kutubxonalar mavjud bo'lgani haqida ma'lumotlar berilgan. Kutubxonalardan eng mashhuri, eng boy va yirigi Somoniylar sulolasi kutubxonsi edi. Madrasa va masjidlar qoshida ham kutubxonalar bo'lgan. Mo'g'ullar istilo'si vaqtida Marv shahrida 10 ta yirik kutubxonalar faoliyat yuritgani haqida ma'lumotlar mavjud. XIII asrda Samarqand, Buxoro, Farg'ona, Balx va boshqa shaharlarda madaniyat markazlari tashkil qilingan bo'lib, olimlar to'planadigan joylar ham mavjud bo'lgan. Shu shaharlarda yirik kutubxonalar mavjud bo'lgan.

XIV asrning 2-yarmidan O'rta Osiyoda madaniy hayotning yangidan o'zgarishlar sodir bo'ldi. Bu o'zgarish kutubxonalarning qayta tiklanishi edi. XIV asr oxirida Shayx Muhammad Porso ochgan vaqf kutubxonasi XIX asr 40-yillarigacha o'z faoliyatini ko'rsatib kelgan. Buxoro, Samarqand, Qarshi, Xiva va boshqa shaharlardagi katta madrasalarda kutubxonalar bo'lgan, ularning fondlari madrasaning qadimgi va nufuziga qarab turlicha bo'lgan. Ba'zi tarixiy manbalarda qayd etilishicha, Beruniy, Ibn Sino, Firdavsiy, Zamaxshariy, Umar Xayyom kabilarning shaxsiy kitoblari, Alisher Navoiyning qimmatbaho qo'lyozmalarga boy yirik kutubxonasi, shuningdek Abdurahmon Jomiyning shaxsiy kutubxonasi mashhur bo'lgan.

XIX asr oxiri, XX asr boshlarida Buxoroda 3 ta eng boy shaxsiy kutubxona bo'lib, bulardan biri Muhammad Sharif Sadr Ziyoning shaxsiy kutubxonasi bugungi kungacha to'liq saqlanib qolgan.

XX asr boshlarida mahalliy o'zbek va rus ziyolilari general Jo'rabek, Dukchi Eshon nomi bilan mashhur Muhammadali xalfa Sobir o'g'li, V.L.Vyatkin, vrach G.M.Semenov, Abdurauf Fitrat va boshqalarning shaxsiy kutubxonalari bo'lgan.

XX asr 10—20-yillari Turkiston hududida 2 ta xalq kutubxonasi, bir necha shahar kutubxonalari va boshqa mavjud bo'lgan. Mahalliy aholi vakillari milliy yo'nalishdagi 2 ta kutubxona va madrasalar huzuridagi kutubxonalardan foydalangan. Shu kutubxonalar o'z davrida davlat kutubxonasini tashkil etishda asosiy negiz bo'lib xizmat qildi. Hozirda ommaviy, ilmiy va maxsus kutubxonalar tizimi shakllangan va faoliyat ko'rsatib kelmoqda.

Hozirda O'zbekistonda kutubxonaning ommaviy, ilmiy va maxsus turlari bor. Ommaviy kutubxonalar adabiyotlarni saralash va keng kitobxonlar ommasiga yetkazish, faoliyatida turli kitobxonlar guruhlariga mo'ljallangan kitoblarni targ'ib qilish va o'qishni boshqarishda faol va ta'sirchan usullarni qo'llaydi. Ilmiy va maxsus kutubxonalarga fan, iqtisodiyot va madaniyatning turli tarmoqlaridagi olimlar va mutaxassislariga xizmat ko'rsatadi, shuningdek, oliy va maxsus o'quv yurtlari talabalarining ehtiyojlarini qondiradi. Ilmiy kutubxonalarga yirik davlat, akademiya, universitet va tarmoqlar kutubxonalari, maxsus kutubxonalarga texnika kutubxonalari, muassasalar, ilmiy tadqiqot institutlari, oliy o'quv yurtlari va hokazodagi kutubxonalar kiradi. Saqlanayotgan adabiyotlar tarkibiga qarab kutubxonani ko'p sohali va soha kutubxonalariga ajratish mumkin. Kutubxonalar o'z navbatida, faoliyati, mintaqaviy darajasiga, mansubligiga qarab yana turlarga bo'linadi:

- milliy kutubxona,
- davlat kutubxonasi,
- viloyat kutubxonasi,
- o'smirlar kutubxonasi,

- qishloq xo'jaligi kutubxonasi va boshqa kutubxonalarga ajratish maqsadga muvofiq bo'ladi. Bugun fan-texnika taraqqiyoti davrida kitobxonlarning talablarini qondirish emas balki, ularga ma'naviy madaniy ozuqa ulashishdir. Shuning uchun ham kutubxonalarni birgalikda faoliyati kuzatilmoqda. Bu kutubxona tarmoqlarini markazlashtirish jarayonida namoyon bo'lmoqda.

Har qanday kutubxonaning asosiy vazifasi kitob fondini jamlash, joylashtirish hamda kitobxonlarga xizmat qilishdan iborat. Kitob fondini jamlash uchun ushbu kutubxonaga kerakli nashrlar muntazam kuzatib boriladi, aniqlanadi va ularni kutubxonaga olish kutubxona kollektori orqali amalga oshiriladi.

Bundan tashqari, yirik kutubxonalar bosma nashrlarning to'liq yoki qisman nazorat nusxasini olish huquqiga ega, shuningdek, ular uchun mamlakat ichida va chet mamlakatlardan kitoblar sotib olish imkoni yaratiladi. Kitobxonlarga xizmat ko'rsatish darajasi kutubxona fondini to'liq to'plashga birmuncha bog'liq.

Kitob fondini to'g'ri tashkil qilish (hisobga olish, joylashtirish, saqlash va kitobxonga yetkazish) kitobxonga adabiyotdan foydalanishni, kutubxonachiga esa kitobxonga tez xizmat ko'rsatishni, fondni ijtimoiy mulk sifatida saqlashni ta'minlaydi.

Kitobxonga xizmat ko'rsatishning turli yo'llari mavjud:

- kitobxonga abonement, qiroat xona hamda ko'chma kutubxona orqali kitob berish;
- ayrim kitobxon va korxonalarga kitob tanlashda yordam berish;
- kutubxona katalogi tizimi orqali kitob fondini yoritish;
- turli xil axborot-bibliografiya qo'llanmalari tuzish va hokazo.

Zamonaviy ilmiy texnika taraqqiyoti kutubxonalar ishini murakkablashtirmoqda. Ko'plab bosma asarlarni ishlab chiqarishning beqiyos darajada o'sishi kutubxonalar oldiga ko'p hajmdagi nashrlarni tanlash, saralash va oqilona saqlash, kompyuterlar vositasida izlab topish va tezda kitobxonga yetkazish masalalarini ko'ndalang qo'yadi.

Kutubxonalar faoliyati sharoitidagi o'zgarishlar avvalgi sermehnat an'anaviy kutubxona texnikasini mexanizatsiyalash va avtomatlashtirish bilan almashtirish vazifasini dolzarb qilib qo'ymoqda. XX asr oxiriga kelib kutubxonalarni texnika bilan ta'minlash darajasi bir muncha o'sdi desak maqsadga muvofiq.

Ayrim kutubxona ichki jarayonlari (yirik kutubxonalarda ko'p kitoblarni harakatlantirish) konveyer va ko'targichlar yordamida amalga oshiriladi, kitob fondlaridan birgalikda foydalanishda zamonaviy uslublarni qo'llash, eng yangi texnika (jumladan, EHM)dan foydalanish va boshqa qo'llanilmoqda.

Yangi kutubxona anjomlari joylardan unumli foydalanishni, kutubxonachi mehnatining unumdorligini yanada oshirishni ta'minlamoqda, kitobxonlarni adabiyotlar ustida ishlashini yengillashtirishga yordam bermoqda hamda ishlab chiqarish estetikasi talablariga to'liq javob beradi.

Zamonaviy texnika kutubxonachini qo'l mehnatidan ozod etib, uni asosiy vazifasi kitobxonlar bilan madaniy tarbiyaviy ishlar olib borishga ko'proq vaqt ajratishga imkon yaratmoqda.

Hozir dunyoda eng yirik kutubxonalar: AQShning Kongress kutubxonasi (Vashington), Britaniya kutubxonasi (London); Fransiya, Avstriya, Shvetsiya, Yaponiya va boshqa mamlakatlarning milliy kutubxonalari, Rossiyadagi Rossiya davlat kutubxonasi (Moskva), Rossiya milliy kutubxonasi (Sankt-Peterburg) va boshqa, O'zbekistonda O'zbekiston milliy kutubxonasi, O'zbekiston Fanlar akademiyasining Asosiy kutubxonasi, O'zbekiston milliy universitetining Asosiy kutubxonasi, "Turon" kutubxonasi va boshqa ko'plab kutubxonalar mavjud. Zamonaviy texnologik jihozlar bilan ta'minlangan.

REFERENCES

1. Axunjanov E.O. Vatan kutubxonachiligi tarixi:.-1-qism Darslik / -Toshkent, A.Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi, 2004.-106 b.
2. Axunjonov E. Kutubxonashunoslik, Arxivshunoslik, Kitobshoslik nazariy va tarixi.- Toshkent.: Tafakkur, 2011.-520 b.
3. Axunjanov E.A. Vatan kutubxonachiligi tarixi 2-qism.-T, 2 Darslik / -Toshkent, A.Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi, 2006.-150 b.
4. Qosimova O. va Yesimov T.Umumiy kutubxonashunoslik: ; O'zR Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi.-T.: "O'qituvchi", 1994.350 b.
5. NURILLO CHORINING BADIY ASARLARIDA MILLIY KOLORITGA XOS KO'RINISHLAR NUTQIY JIHATDAN IFODALANISHI
SH Norqulovich - International conference on multidisciplinary science, 2023
Цитируется: 15 Похожие статьи
6. NATIONAL COLOR AND COMPARATIVE ANALYSIS IN THE WORKS OF MAHTUMQULI, GAFUR GHULAM AND ANVAR SUYUN
H Suvanov - Modern Science and Research, 2024
Цитируется: 5 Похожие статьи Все версии статьи (3)
7. Kolorit ijodkorning va xalqning milliy qirralarini ochib berguvchi omildir
8. HN Suvanov - Science and Education, 2023
9. Цитируется: 5 Похожие статьи Все версии статьи (2)
10. "ESHMONBEK" QISSASIDA MILLIY RUH TALQINI
11. S Husniddin - BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ..., 2022
Цитируется: 5 Похожие статьи Все версии статьи (3)

12. MILLIY MADANIYAT VA MILLIY KOLORIT BADIY ASARDA NAMOYON BO'LISHI
H Suvanov - NRJ, 2024
Цитируется: 4 Похожие статьи
13. MANIFESTATION OF THE NATIONAL COLOR CHARACTERISTIC OF THE NATIONAL MENTALITY IN THE WORKS OF BIBI ROBIA SAIDOVA
H Suvanov - Modern Science and Research, 2023
Цитируется: 1 Похожие статьи Все версии статьи (2)
14. HUSNIDDIN SUVANOV CHARACTERISTIC ASPECTS OF NATIONAL COLOR IN BIBI ROBIA SAIDOVA'S STORY" OQMAYDIGAN TOSH" 2023/4/30. Страницы 50-53